Global raqamli qaramlik (telefon, internet, ijtimoiy tarmoq)ning talabalarning ruhiy holatiga ta'siri	1868
Babayeva Nazira Asatullayevna	
O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlik shakllanishida shaxslararo munosabatlarning ahamiyati	1872
Majidov Jasur Baxtiyarovich	
Yosh futbolchilarda stress va asabiylikni boshqarish.....	1877
O.T. Baxromov	
Структура и содержание когнитивных компетенций в профессиональной подготовке педагога.....	1880
Каримова Фарида Наильевна	
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish.....	1884
Muqimov Ma'ruf Olimovich	
Biologiya darslarida innovatsion interfaol metodlar: STEM, CLIL, Flipped Classroom va PBL yondashuvlarini joriy etish mexanizmlari	1887
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish	1892
Ibrohimova Nilufar Qobil qizi	
Творческое наследие Тагай Мурада: его рассказы в оригинале и в переводе	1897
Меликулова Нилуфар Хамдуллаевна	
Gender Equality: an Important Prospect for the Development of a New Uzbekistan	1902
Khamidova Sitorakhan Mukhammadjonovna	
Gandbolchilarning jismoniy sifatlarini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish.....	1906
Lutpullayev Bunyod Ismatilayevich	
Abu Mansur al-Moturidiyning bilimning "Muvofiqlik nazariyasi"	1909
Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi	
Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalaring rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari.....	1914
X. N. Agaliyeva	
Maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati	1920
Urinbayeva Barchinoy Zafarjanovna	
Yoshlarni milliy musiqa san'ati va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash	1924
Qurbonova Shoxisanam Axmadjonovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganishdagi klaster yondashuvlari	1930
Umarova Nafisa Ahmatillovna	
11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari	1934
Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura	
Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish	1937
Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich	



Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование	1940
Урумбаева Айгуль Нагметовна	
Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка	1947
Адилова Солияхон	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
Boltayeva Go'zal Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar	1954
Mansurova Lobar Luqmon qizi	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
Yusupova Nargiza Abdulxafizovna	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
Бекмуратова Умида Аманбаевна	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
Namozova Nargiza Husniddin qizi	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
Rakhmonova Diyora Utkir's daughter	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
Davulov Ozodbek Qalandarovich	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlar.....	1984
Djemilov Temur Rasimovich	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
Usmanova Sevara Akmalovna	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
Istamova Dilnoza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
Turaxujayeva Madina Norpulatovna	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni	2015
Karimov Faxriddin Xurramovich	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
Djabbarov Axror Islomovich	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa	2023
Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
Almardanova Salomat Bobonazarovna	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihasini amalga oshirishning o'ziga xosligi	2040
Azimova Odinaxon Abduqodir qizi	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
Kayumova Nazokat Rashitovna	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
Kurbanov Baxrom	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
Madaminova Nilufar Madrasulovna	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
Mo'minova Dilnavoz Komilovna	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
Odina Otajonova	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
Oromiddinov Sardorbek Botirovich	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
Qodirova Feruza Usmanovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
Sobirova Bonu Matkarimovna	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
Y. T. Umarova	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
Yakubova Manzura Abduraxmonovna	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
Yaxyayeva Umida Sharifovna	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
Sodiqov Murod Naimovich	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	



YENGIL ATLETIKA SPORTCHILARIDA YADRO ITQITISH HARAKATI BIOMEXANIK KO'RSATKICHLARINING TEXNIK SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Djabbarov Axror Islomovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Jismoniy madaniyat va sport faoliyati” kafedrası katta-o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakatining biomexanik ko'rsatkichlari hamda ularning texnik samaradorlikka ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot zamonaviy biomexanika fanining nazariy va amaliy yutuqlariga asoslanib, yadro itqitish texnikasining kinematik va dinamik parametrlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan. Maqolada sportchilarning harakat tuzilishi, tezlik-kuch ko'rsatkichlari, optimal itarish burchagi va energiya sarfi masalalari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida baholangan. Olingan natijalar biomexanik parametrlarni to'g'ri boshqarish va ularni takomillashtirish sport natijalarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berishini ko'rsatadi. Tadqiqot O'zbekiston va xorijiy ilmiy manbalar asosida olib borilib, nazariy va amaliy jihatdan muhim xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: biomexanika, yadro itqitish, kinematika, dinamika, texnik samaradorlik, sport natijalari, yengil atletika, harakat tahlili, kuch ko'rsatkichlari.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the biomechanical characteristics of the shot put technique in track and field athletes and their influence on technical efficiency. The study is based on modern achievements in biomechanics and focuses on an in-depth examination of the kinematic and dynamic parameters of shot put performance. The research evaluates the structure of athletic movements, speed-strength indicators, optimal release angle, and energy expenditure through a comprehensive review of scientific literature. The results demonstrate that effective control and optimization of biomechanical parameters can significantly enhance athletic performance. The study is grounded in both national and international scientific sources and offers valuable theoretical and practical insights.

Key words: biomechanics, shot put, kinematics, dynamics, technical efficiency, athletic performance, track and field, movement analysis, strength indicators.

Аннотация: В данной статье представлен научный анализ биомеханических показателей движения толкания ядра у легкоатлетов и их влияния на техническую эффективность. Исследование основано на современных достижениях биомеханики и направлено на изучение кинематических и динамических параметров техники толкания ядра. В работе рассматриваются структура двигательных действий спортсменов, скоростно-силовые показатели, оптимальный угол толчка и особенности энергозатрат на основе анализа научной литературы. Полученные результаты свидетельствуют о том, что рациональное управление и совершенствование биомеханических параметров способствует значительному повышению спортивных результатов. Исследование выполнено на основе отечественных и зарубежных научных источников и имеет важное теоретическое и практическое значение.

Ключевые слова: биомеханика, толкание ядра, кинематика, динамика, техническая эффективность, спортивные результаты, лёгкая атлетика, анализ движений, силовые показатели.

KIRISH

Zamonaviy sport fanida biomexanik tahlil sport turlarida, xususan, yengil atletika yo'nalishida yuqori natijalarga erishishning muhim ilmiy vositalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Yadro itqitish kuch-tezlik xarakteriga ega bo'lgan klassik sport turlaridan biri bo'lib, unda sportchining yuqori jismoniy imkoniyatlari bilan bir qatorda texnik mahoratining mukammal darajada shakllangan bo'lishi talab etiladi. Jahon sport arenasida yadro itqitish bo'yicha rekord natijalarning muntazam yangilanib borishi mazkur sport turida biomexanik tadqiqotlarning ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi ^[1]. O'zbekiston sport tizimida ham yengil atletika yo'nalishini

rivojlantirish va sportchilarning xalqaro musobaqalarda munosib natijalarga erishishini ta'minlash uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Yadro itqitish texnikasi murakkab koordinatsion harakatlar majmuasidan iborat bo'lib, u boshlang'ich holat, sirg'alish yoki aylanma harakat, itarish hamda muvozanatni saqlash fazalarini o'z ichiga oladi. Ushbu fazalarning har biri o'ziga xos biomexanik xususiyatlarga ega bo'lib, yakuniy sport natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2]. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sportchining texnik tayyorgarligi uning jismoniy salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini beradi, texnik jihatdan puxta tayyorgarlik esa yuqori natijalarga erishishda hal qiluvchi omil hisoblanadi [3]. Shu bois, biomexanik parametrlarni chuqur tahlil qilish va ular asosida mashg'ulotlar tizimini optimallashtirish zamonaviy sport pedagogikasi va sport tayyorgarligining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, biomexanik ko'rsatkichlarning texnik samaradorlikka ta'sirini tizimli ravishda o'rganish murabbiylar va sportchilar uchun aniq hamda amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini yaratadi. Zamonaviy sport biomexanikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari harakatlarning kinematik, dinamik va energetik parametrlarini optimal darajada boshqarish sport natijalarini sezilarli darajada, jumladan 5–15 foizgacha oshirish imkonini berishini ko'rsatmoqda [4]. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi yadro itqitish harakatining yetakchi biomexanik ko'rsatkichlarini ilmiy adabiyotlar tahlili asosida baholash hamda texnik samaradorlikni oshirishning istiqbolli yo'llarini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biomexanik tahlilning nazariy asoslarini shakllantirishda V.M. Zatsiorskiy, D.D. Donskoy va boshqa rus olimlarining klassik tadqiqotlari alohida ilmiy ahamiyatga ega [5]. Ushbu ishlarda sport harakatlarining kinematik va dinamik xususiyatlari, harakat fazalari hamda ularning o'zaro bog'liqligi tizimli ravishda yoritilgan. Xususan, V.M. Zatsiorskiy yadro itqitishda optimal itarish burchagi 38–42 daraja oralig'ida bo'lishini asoslab bergan hamda mazkur ko'rsatkich sportchining tana balandligi va qo'l uzunligi bilan uzviy bog'liqligini ilmiy jihatdan isbotlagan [1]. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar optimal itarish burchagi sportchining individual xususiyatlari va texnik tayyorgarlik darajasiga qarab moslashtirilishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Yadro itqitish texnikasining kinematik tahlili bo'yicha xorijiy olimlar, jumladan, Bartonietz va hamkorlarining tadqiqotlari muhim ilmiy natijalar bilan ajralib turadi [6]. Ular yuqori malakali sportchilarning harakatlarini videoanaliz va tezkor kinematografiya usullari yordamida o'rganib, itarish fazasidagi tezlik va tezlanish ko'rsatkichlarining sport natijasiga bevosita ta'sirini aniqlaganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yadro itqitish jarayonida maksimal tezlikka erishish vaqti 0,15–0,25 soniya oralig'ida bo'lishi sportchining mushak kuchini samarali namoyon etishiga qulay sharoit yaratadi [6]. Shuningdek, tana og'irlik markazining optimal harakati hamda oyoqlar va gavda qismlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati texnik samaradorlikni oshiruvchi muhim omillar sifatida e'tirof etiladi.

Dinamik parametrlarni tahlil qilish borasida Linthorne va hamkorlarining tadqiqotlari alohida ilmiy qiymatga ega [7]. Ushbu izlanishlarda yadro itqitishda qo'llaniladigan kuch va quvvat ko'rsatkichlarini aniqlash metodlari takomillashtirilgan hamda turli texnik variantlar biomexanik nuqtai nazardan baholangan. Dinamometriya va kuch platformalari yordamida olingan ma'lumotlar itarish fazasida maksimal kuch ko'rsatkichlari 800–1200 N gacha yetishi mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkichlar sportchining tana massasi, mushak quvvati va texnik tayyorgarligi bilan chambarchas bog'liqdir [7]. Bundan tashqari, energiya sarfining samarali taqsimlanishi sport natijasini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston olimlaridan M.S. Saidov va R.A. Axmedovlarning yengil atletika sportchilarini tayyorlashga bag'ishlangan tadqiqotlari milliy sport maktabi sharoitida biomexanik yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlarini keng yoritadi [8]. Ularning fikricha, sportchilarning individual antropometrik xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik variantlarni tanlash mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, iqlim sharoitlari va mashg'ulotlar rejimining biomexanik samaradorlikka ta'siri ham ijobiy natijalarga erishishda muhim omil sifatida baholanadi.

Harakat texnikasining fazaviy tuzilishi bo'yicha adabiyotlar tahlili yadro itqitish jarayonini to'rtta asosiy fazaga ajratish imkonini beradi: tayyorgarlik fazasi, sirg'alish yoki aylanma harakat fazasi, itarish fazasi va yakuniy muvozanat fazasi [2]. Har bir fazaning biomexanik samaradorligi keyingi fazaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini belgilaydi. Tayyorgarlik fazasida optimal boshlang'ich holat shakllantiriladi, sirg'alish yoki aylanma harakat fazasida kinetik energiya to'planadi, itarish fazasida ushbu energiya yadro tezligiga uzatiladi, yakuniy fazada esa sportchining aylana ichida muvozanatni saqlashi ta'minlanadi. Mazkur fazalar bo'yicha ishlab chiqilgan biomexanik mezonlarga rioya etish sport natijalarining barqaror o'sishini ta'minlaydi [3].

Tezlik-kuch ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligiga oid tadqiqotlar yadro itqitishda yuqori natijalarga erishishda sportchining eksploziv kuchi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi [9]. Eksploziv kuch qisqa



vaqt ichida maksimal kuch hosil qilish qobiliyati sifatida tavsiflanadi va aynan ushbu ko'rsatkich yadro itqitish texnikasining samaradorligini belgilaydi. Biomexanik nuqtai nazardan, eksploziv kuch mushak tolalarining tez qisqarish xususiyatlari hamda nerv-mushak koordinatsiyasining yuqori darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shu bois, mashg'ulotlar jarayonida eksploziv kuchni rivojlantirish bilan bir qatorda texnik mahoratni uzluksiz takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Sportchining antropometrik xususiyatlarining biomexanik samaradorlikka ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tana balandligi, a'zolar uzunligi va tana massasining yadro itqitish texnikasini tanlashda muhim omillar ekanligini ko'rsatadi ^[10]. Uzun bo'lyli sportchilar odatda yuqoriroq itarish nuqtasiga ega bo'lib, bu optimal itarish burchagini moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, massasi katta sportchilar yuqori kuch ko'rsatkichlarini namoyon etishi mumkin, ularning texnik tayyorgarligi va tezlik-kuch sifatlarini uyg'un rivojlantirish esa yuqori sport natijalariga erishish uchun qulay sharoit yaratadi. Demak, individual yondashuv va har bir sportchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik variantlarni tanlash yadro itqitish samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish va nazariy umumlashtirish metodlariga asoslangan. Tahlil jarayonida O'zbekiston, Rossiya hamda xorijiy mualliflarning biomexanika, yengil atletika va sport pedagogikasi yo'nalishlariga oid ilmiy ishlari keng qamrovda o'rganildi. Adabiyotlarni tanlashda sport biomexanikasi sohasida so'nggi o'n yil davomida e'lon qilingan eng dolzarb va nufuzli tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratildi. Nazariy materiallar taqqoslash, tahlil va sintez metodlari yordamida izchil ravishda sistemalashtirilib, tadqiqot maqsadlariga mos holda umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili natijalarini umumlashtirish asosida yadro itqitish harakatining biomexanik samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni quyidagicha tizimlashtirish mumkin. Birinchidan, optimal itarish burchagi va chiqish tezligi sportchining individual antropometrik hamda texnik xususiyatlariga muvofiq tanlanishi zarur. Nazariy hisob-kitoblarga ko'ra, 42 daraja ideal burchak sifatida qaraladi, biroq amaliy sharoitda sportchining tana balandligi, qo'l uzunligi va itarish nuqtasining balandligi inobatga olinganda mazkur ko'rsatkich 38–44 daraja oralig'ida moslashtirilishi mumkin. Ikkinchidan, itarish fazasida maksimal tezlikka erishish vaqti muhim parametr bo'lib, u 0,2 soniyadan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Mazkur vaqt oralig'ida sportchi to'plangan kinetik energiyani maksimal darajada yadro tezligiga samarali uzatishi ta'minlanadi.

Uchinchidan, tana segmentlarining ketma-ket va muvofiqlashtirilgan harakati yadroni maksimal tezlikka yetkazishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Biomexanik tahlillar harakatning oyoqlardan boshlanib, tos, ko'krak va yuqori qo'l segmentlari orqali izchil uzatilishi zarurligini ko'rsatadi. Ushbu ketma-ketlikka rioya etilishi energiya uzatilishining samaradorligini oshiradi va sport natijalarining barqaror o'sishini ta'minlaydi. To'rtinchidan, sportchi tana og'irlik markazining optimal traektoriyasi ham muhim ahamiyatga ega. Sirg'alish yoki aylanma harakat fazasida tana markazining past va tezkor harakati keyingi itarish fazasida yuqori tezlikni shakllantirishga qulay sharoit yaratadi. Beshinchidan, yakuniy muvozanat fazasida sportchining o'z holatini nazorat qila olish qobiliyati texnik samaradorlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sport biomexanikasi videotahlil, dinamometriya va elektromyografiya kabi ilg'or usullar orqali harakat parametrlarini yuqori aniqlikda baholash imkoniyatiga ega. Ushbu usullar yordamida murabbiylar sportchilarning texnik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishi va mashg'ulot jarayonini individuallashtirish uchun ilmiy asoslangan dasturlar ishlab chiqishi mumkin. O'zbekiston sharoitida bunday zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish yengil atletika sportchilarining sport natijalarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi kutiladi. Buning uchun sport-fan laboratoriyalarini zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash hamda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi.

Biomexanik parametrlarning texnik samaradorlikka ta'sirini baholashda kompleks yondashuvning ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Alohida bir parametрни takomillashtirish yetarli emas, balki barcha biomexanik ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi va uyg'un rivoji ta'minlanishi lozim. Jumladan, sportchining eksploziv kuchini oshirish bilan bir qatorda texnik mahoratni izchil takomillashtirishga ham alohida e'tibor qaratilishi zarur. Shuningdek, sportchining psixologik tayyorgarligi va musobaqa sharoitida texnik harakatlarni barqaror namoyon eta olish qobiliyati ham sport natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillar qatoriga kiradi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan tajribalar biomexanik jihatdan puxta ishlab chiqilgan mashg'ulotlar dasturi sportchilarning natijalarini 6 oylik davr ichida 8–12 foizgacha oshirish imkonini berishini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yadro itqitish harakatining biomexanik ko'rsatkichlarini tahlil qilish va ularning texnik samaradorlikka ta'sirini baholash zamonaviy yengil atletika sportchilarini tayyorlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, optimal itarish burchagi, maksimal tezlikka erishish vaqti, tana segmentlarining muvofiqlashtirilgan harakati, tana og'irlik markazining ratsional traektoriyasi hamda yakuniy muvozanatni saqlash qobiliyati texnik samaradorlikni belgilovchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Shu nuqtai nazardan, har bir sportchining individual antropometrik va jismoniy xususiyatlarini inobatga olgan holda biomexanik parametrlarni optimallashtirish yuqori sport natijalariga erishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sport biomexanikasi usullari, xususan, videoanaliz va dinamometriya texnologiyalari harakat parametrlarini aniq va obyektiv baholash imkonini beradi. O'zbekiston sport tizimida mazkur ilmiy yondashuvlarni keng joriy etish yengil atletika sportchilarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi kutiladi. Buning uchun zamonaviy sport-fan laboratoriyalarini tashkil etish, ularni ilg'or texnik vositalar bilan jihozlash hamda yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Kelgusidagi tadqiqotlarda amaliy tajribalar o'tkazish, shuningdek, milliy sportchilar uchun biomexanik parametrlarning me'yoriy qiymatlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Yadro itqitish bo'yicha mashg'ulot jarayonida biomexanik tahlil usullarini tizimli ravishda joriy etish, ayniqsa videoanaliz va dinamometriya vositalaridan foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi. Sportchilarning individual antropometrik xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik parametrlarni optimallashtirish hamda eksploziv kuchni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlarni qo'llash sport natijalarining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зациорский В. М., Аруин А. С., Селуянов В. Н. Биомеханика двигательного аппарата человека. – Москва: Физкультура и спорт, 2017. – 320 с.
2. Донской Д. Д., Зациорский В. М. Биомеханика: учебник для институтов физической культуры. – Москва: ФИС, 2019. – 264 с.
3. Саидов М. С., Ахмедов Р. А. Ёнғил атлетика спортчиларини тайёрлашнинг замонавий усуллари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 185 б.
4. Popov G. I., Ratov I. P. Biomechanics of motor activity: textbook for students. – Moscow: Academy, 2018. – 312 p.
5. Бернштейн Н. А. О ловкости и её развитии. – Москва: Физкультура и спорт, 2016. – 288 с.
6. Bartonietz K., Borgström A. The throwing events at the World Championships in Athletics 1995: technique of the world's best athletes // New Studies in Athletics. – 1995. – Vol. 10. – P. 43–63.
7. Linthorne N. P. Biomechanics of the javelin throw // Sports Biomechanics. – 2001. – Vol. 1(1). – P. 79–92.
8. Ахмедов Р. А. Ёнғил атлетикада техник тайёргарликнинг биомеханик асослари // Спорт-илм ахборотномаси. – 2021. – № 3. – Б. 45–52.
9. Knudson D. Fundamentals of Biomechanics. – New York: Springer, 2020. – 305 p.
10. McGinnis P. M. Biomechanics of Sport and Exercise. – Champaign: Human Kinetics, 2019. – 368 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.